
“Chinigaron” MFYda subsidiya asosida quduq burg’ilanmoqda

Islohotlar amalda

Qadimdan ota-bobolarimiz yerdan unumli foydalanish el dasturxonining fayzli, barakali bo’lishi bilan birga bozorlarimiz to’kinligini ta’minlagan holda daromadning ham oshishi ekanligini yaxshi bilishgan.

– Mahallamiz aholisi hovlilarda istiqomat qiladi, – deydi Chinigaron MFY raisi Sobirjon Yo’ldoshev. – Har bir xonadonda tomorqa yer mavjud. Albatta zaminimiz serhosil. Tuproq-iqlim sharoiti to’rt faslda ham sabzavot ekinlari yetishtirish uchun g’oyat qulay. Xonadon egalari turli sabzavotlar, ekib imkon qadar dehqonchilik qilinadi. Ammo bugungi kunga kelib suv taqchilligi sezilayotganli. Bu esa ekinlarni sug’orishda bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Chindan ham, mahallada oqar suv taqchilligi muammosi mavjud. Shuning uchun ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida tuman fermer, dehqon xo’jaligi va tomorqa yer egalari Kengashi tomonidan O’zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartib asosida aholi tomorqalarini sug’orish uchun yer osti suvlariga quduqlarni burg’ilash ishlari olib borilmoqda. Yaqinda ushbu mahallada ham ana shunday quduq qazilib, suv chiqariladi.

– So’nggi yillarda mamlakatimizda mavjud yer maydonlardan samarali foydalanish, qishloq aholisining bandligi va turmush darajasini oshirish bo’yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda, – deydi tuman fermer, dehqon xo’jaligi va tomorqa yer egalari Kengashi raisi Isomiddin O’rinboev. – Ayniqsa, tomorqa yerlaridan unumli foydalanish maqsadida aholi tomorqasini sug’orish uchun subsidiya ajratish orqali quduqlar qazishga alohida e’tibor qaratilayapti. Bugungi kunda suv muammosi mavjud Chinigaron MFYda ana shunday quduq qazish ishlari boshlab yuborildi. Buning uchun 120 million so’m subsidiya ajratildi.

2022-09-12 05:52:18